Avezmetov Jaxongir Sheraliyevich (UzDJTU 1-Ingliz tili fakulteti "1-Ingliz tili amaliy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi; https://orcid.org/0009-0006-2369-6217)

WEB-LUG'ATLAR ASOSIDA INGLIZ TILI LEKSIKASINI O'QITISHNING INTERAKTIV MODELI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada birinchi bosqich talabalariga ingliz tili leksikasini web-lug'atlar asosida o'qitishning interaktiv modeli ishlab chiqiladi va ilmiy-metodik jihatdan asoslanadi. Tadqiqotda raqamli leksikografiya imkoniyatlari, multimodal lug'at komponentlari, korpus texnologiyalari hamda interaktiv platformalarning ta'lim jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi. O'qitish modeli uch bosqichli (tanishtiruv, analitik, produktiv) tizim asosida ishlab chiqilgan bo'lib, talabalarda leksikografik kompetensiya, kollokatsion tafakkur va mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Maqolada eksperimental metod asosida modelning samaradorligi asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *web-lug'at, leksikografik kompetensiya, interaktiv model, raqamli ta'lim, kollokatsiya, korpus texnologiyasi.*

ИНТЕРАКТИВНАЯ МОДЕЛЬ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОЙ ЛЕКСИКЕ НА ОСНОВЕ ВЕБ-СЛОВАРЕЙ

Аннотация*. В статье разрабатывается и научно-методически обосновывается интерактивная модель обучения английской лексике на основе веб-словарей для студентов первого курса. Анализируются возможности цифровой лексикографии, мультимодальные компоненты словарных статей, корпусные технологии и интерактивные платформы в образовательном процессе. Модель обучения построена на трёхэтапной системе (ознакомительный, аналитический, продуктивный этапы) и направлена на формирование лексикографической компетенции, коллокационного мышления и навыков самостоятельной работы. Эффективность модели подтверждается результатами экспериментального обучения.*

Ключевые слова: *веб-словарь, лексикографическая компетенция, интерактивная модель, цифровое обучение, коллокация, корпусные технологии.*

AN INTERACTIVE MODEL OF TEACHING ENGLISH VOCABULARY BASED ON WEB DICTIONARIES

Annotation. *The article develops and scientifically substantiates an interactive model of teaching English vocabulary based on web dictionaries for first-year university students. The study analyzes the potential of digital lexicography, multimodal dictionary components, corpus technologies, and interactive platforms in the educational process. The proposed teaching model is structured into three stages (introductory, analytical, and productive) and aims to develop lexicographic competence, collocational aware-ness, and independent learning skills. The effectiveness of the model is confirmed through experimental teaching results.*

Keywords: *web dictionary, lexicographic competence, interactive model, digital learning, collocation, corpus technology.*

Kirish (Introduction). Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar asosida til o'qitish metodikasi yangi bosqichga ko'tarildi. An'anaviy bosma lug'atlardan farqli ravishda web-lug'atlar multimodal, interaktiv va tezkor ma'lumot manbayi sifatida talabaning mustaqil o'rganish faoliyatini faollashtiradi. Xususan, Oxford Learner's Dictionaries, Cambridge Dictionary kabi zamonaviy raqamli lug'atlar talaffuz, kollokatsiya, uslubiy belgi va real kontekst namunalarini taqdim etadi. Shu sababli web-lug'atlar asosida ingliz tili leksikasini o'qitishning interaktiv modelini ishlab chiqish metodika fanining dolzarb masalalaridan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literatura review). Web-lug'atlar asosida ingliz tili leksikasini o'qi-tish masalasi zamonaviy leksikografiya, korpus lingvistikasi va raqamli pedagogika kesishgan nuqtada shakll-angan ilmiy yo'nalishdir. Mazkur muammo bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, avvalo, zamonaviy leksikogra-fiya nazariyasining rivojlanishi bilan bog'liq. Ingliz leksikografiyasi tarixiy va nazariy asoslari A.P.Kauining *"Oxford History of English Lexicography"* (2009) asarida tizimli ravishda yoritilgan bo'lib, unda lug'at maqolasi tuzilishi, semantik tavsif prinsiplari va foydalanuvchi ehtiyojlariga moslashuv jarayoni ilmiy asoslangan. Ushbu tadqiqot web-lug'atlar strukturasi va ularning interaktiv xususiyatlarini tushunishda nazariy tayanch vazifasini bajaradi.

Tilni o'qitishda leksik birliklarning kollokatsion tabiatiga e'tibor qaratish zarurligi Maykl Lyuisning "The Lexical Approach" (1993) asarida ilmiy asoslangan. Muallif tilni alohida so'zlar yig'indisi sifatida emas, balki tayyor leksik bloklar tizimi sifatida o'rganish samaraliroq ekanini ta'kidlaydi. Bu nazariya web-lug'atlarda mavjud kollokatsion bloklar va real qo'llanish namunalari orqali o'qitish modelini ishlab chi-

qishda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi. Korpus lingvistikasi asoschisi sifatida e’tirof etilgan Jon Sinkler real til qo‘llanishiga asoslangan lug‘at tuzish prinsiplari zarurligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Uning ishlari natijasida lug‘atchilikda autentik kontekstga tayanish tamoyili shakllandi, bu esa bugungi web -lug‘atlarning asosiy xususiyatlaridan biridir.

Korpus lingvistikasi metodologiyasining rivojlanishida Daglas Bayberning tadqiqotlari alohida o‘rin tutadi. U til birliklarini statistik va funksional jihatdan o‘rganish metodlarini ishlab chiqib, leksik birliklarning real nutqdagi qo‘llanish chastotasi va kontekstual xususiyatlarini aniqlash imkonini yaratdi. Ushbu yondashuv zamonaviy elektron lug‘atlar, xususan, Corpus of Contemporary American English asosida ishlab chiqilgan resurslarda o‘z ifodasini topgan.

Raqamli leksikografiya yo‘nalishida Pedro A.Fuertes-Olivera elektron lug‘atlarning foydalanuvchi eh-tiyojlariga moslashuvi, qidiruv mexanizmlari va giperhavolalar tizimini ilmiy jihatdan tahlil qilgan. Uning tadqiqotlarida elektron lug‘atlarning interaktiv tabiati va o‘quv jarayonidagi afzalliklari asoslab berilgan. Bugungi kunda keng qo‘llanilayotgan *Oxford Learner’s Dictionaries* hamda *Cambridge Dictionary* kabi web-lug‘atlar multimodal elementlar–audiotalaffuz, kollokatsiya bloklari, real misollar–orqali o‘quvchi uchun qulay va interaktiv muhit yaratadi.

Raqamli pedagogika sohasidagi tadqiqotlar web-resurslar talabaning mustaqil ta’lim faoliyatini faollashtirishini ko‘rsatadi. Xususan, *Quizlet* platformasi leksik birliklarni takrorlash va mustahkamlash jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy leksikografiya foydalanuvchi markazlashgan va funk-sional yondashuvga asoslanadi, korpus lingvistikasi lug‘at maqolasining autentikligini ta’minlaydi, raqamli lu-g‘atlar esa multimodal va interaktiv imkoniyatlari bilan didaktik samaradorlikni oshiradi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Leksikografiya tilshunoslikning amaliy va nazariy yo‘-nalishlaridan biri bo‘lib, lug‘at tuzish, lug‘at maqolasining tuzilishini ishlab chiqish, so‘z ma’nosini izohlash, uning grammatik, stilistik va funksional xususiyatlarini tavsiflash bilan shug‘ullanadi. Mazkur soha nafaqat lug‘at yaratish texnologiyasini, balki lug‘atdan foydalanish madaniyatini ham o‘rganadi. Leksikografiya nazariy jihatdan semasiologiya, leksikologiya va korpus lingvistikasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, til birliklarini tizimli va ilmiy asosda tavsiflashni maqsad qiladi.

Lug‘atchilik amaliyoti qadimiy sivilizatsiyalar davriga borib taqaladi. Eng qadimgi lug‘aviy ro‘yxatlar Mesopotamiya hududida miloddan avvalgi uchinchi ming yillikda paydo bo‘lgan bo‘lib, ular, asosan, so‘zlar ro‘yxati shaklida tuzilgan. Antik davrda yunon va lotin tillari bo‘yicha izohli va tarjima lug‘atlari shakllangan. O‘rta asrlarda esa ikki va ko‘p tilli lug‘atlar ilmiy va diniy matnlarni tushuntirish ehtiyoji bilan bog‘liq ravishda rivojlangan. Ingliz leksikografiyasi tarixida 1755-yilda chop etilgan Samuel Jonson lug‘ati muhim bosqich hisoblanadi, keyinchalik, XIX–XX asrlarda ilmiy prinsiplarga asoslangan izohli lug‘atlar paydo bo‘ldi. Zamonaviy ilmiy leksikografiyaning shakllanishi, ayniqsa, korpus lingvistikasi taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lib, real nutq namunalari asosida lug‘at tuzish tamoyili ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab pedagogik leksikografiya yo‘nalishi shakllandi. Bu jarayonda lug‘at o‘quvchi ehtiyojlariga moslashtirilgan holda tuzilishi kerakligi asoslab berildi. Leksik birlikni faqat izohlash emas, balki uning qo‘llanish muhitini, kollokatsion imkoniyatlarini va stilistik belgisini ko‘rsatish muhimligi ta’kidlandi. Mazkur yondashuv ayniqsa ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘qitish amaliyotida keng qo‘llanildi. Hozirgi bosqichda elektron va web-lug‘atlar pedagogik leksikografiyaning asosiy vositalaridan bi-riga aylandi, chunki ular multimodal elementlar, tezkor qidiruv va real kontekst namunalari orqali ta’lim jara-yonini interaktivlashtiradi.

Leksikografiyani o‘qitish masalasi tilshunoslik va metodika fanlari kesishgan nuqtada qaraladi. An’-anaviy yondashuvda lug‘at bilan ishlash ko‘nikmasi yordamchi vosita sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvda u mustaqil o‘quv kompetensiyasining tarkibiy qismi sifatida baholanadi. Talaba lug‘at maqolasining strukturaviy elementlarini – sarlavha so‘z, transkripsiya, so‘z turkumi, izoh, misol, kollokatsiya, stilistik belgi va qo‘llanish sohasi – tahlil qila olishi zarur. Bunday ko‘nikma talabaning semantik tafakkurini rivojlantiradi va so‘zning funksional imkoniyatlarini to‘g‘ri anglashga yordam beradi.

Leksikografiyani samarali o‘qitish bosqichma-bosqich tashkil etilishi lozim. Dastlabki bosqichda lug‘at maqolasi tuzilishini tushuntirish va undagi belgilar tizimini izohlash maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda ko‘rgazmali va reproduktiv metodlar qo‘llanadi. Keyingi bosqichda analitik yondashuv asosida bir so‘zning turli lug‘atlardagi talqinini qiyoslash, sinonimik qatorni aniqlash, kollokatsion imkoniyatlarni tahlil qilish samarali hisoblanadi. Ushbu bosqich talabaning tanqidiy va kontekstual tafakkurini rivojlantiradi. Yakuniy bosqichda esa produktiv faoliyat tashkil etilib, talabalar mustaqil ravishda minilug‘at maqolasi tuzish, glossariy yaratish yoki korpus ma’lumotlari asosida leksik tahlil o‘tkazish kabi topshiriqlarni bajaradilar.

Zamonaviy sharoitda web-lug‘atlar asosida o‘qitish ayniqsa samarali deb hisoblanadi. Chunki electron resurslar so‘zning talaffuzi, kollokatsiyasi, real qo‘llanish namunasi va stilistik xususiyatini bir vaqtning o‘zida taqdim etadi. Multimodal taqdimot eslab qolish jarayonini kuchaytiradi, interaktiv qidiruv tizimi esa talabaning mustaqil izlanish faoliyatini rag‘batlantiradi. Korpus asosidagi yondashuv orqali so‘zning nutqdagi real chastotasi va tipik sintaktik muhitini aniqlash mumkin bo‘ladi, bu esa semantik nozikliklarni anglashga yordam beradi.

Quyida zamonaviy web-lug‘atlarning metodik imkoniyatlari bo‘yicha qiyosiy jadval taqdim etiladi:

Mezoni	Oxford Learner’s Dictionaries	Cambridge Dictionary	Merriam-Webster	Corpus of Contemporary American English
Maqsadli auditoriya	Ingliz tilini o‘rganuvchilar	O‘quvchilar va akademik foydalanuvchilar	Amerika ingliz tili foydalanuvchilari	Til tadqiqotchilari va ilg‘or o‘quvchilar
Izoh tili	Soddalashtirilgan, o‘quvchiga mos	Aniq va kontekstual	Nisbatan murakkab, batafsil	Izoh bermaydi, real kontekst ko‘rsatadi
Talaffuz	Britan va Amerikan variantlari (audio)	Britan va Amerikan variantlari (audio)	Asosan Amerikan variant	Talaffuz funksiyasi mavjud emas
Kollokatsiyalar	Maxsus kollokatsion bloklar	Kollokatsion misollar mavjud	Cheklangan kollokatsiya	Real matnlarda tabiiy kollokatsiya
Grammatik ma’lumot	So‘z turkumi, shakllar, modellari	Grammatik izoh va qo‘llanish	Grammatik tavsif mavjud	Grammatik naqshlarni kontekstda ko‘rsatadi
Etimologiya	Qisqa ma’lumot	Juda qisqa yoki cheklangan	Batafsil etimologiya	Etimologik ma’lumot bermaydi
Akademik yozuv uchun	O‘rta darajada mos	Juda mos (formal/informal farqlari aniq)	Akademik daraja uchun mos	Akademik matn tahlili uchun juda mos
Interaktivlik	Yuqori	Yuqori	O‘rtacha	Yuqori (filtrlash va statistik qidiruv)
Boshlang‘ich bosqich uchun	Juda mos	Mos	Nisbatan murakkab	Tayyorlovsiz qiyin
Ilmiy tadqiqot uchun	Cheklangan	Cheklangan	O‘rtacha	Juda yuqori

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, birinchi bosqich talabalari uchun soddalashtirilgan izoh va aniq struk-tura sababli Oxford va Cambridge lug‘atlari metodik jihatdan qulay hisoblanadi. Merriam-Webster etimologik va tarixiy ma’lumot berish jihatidan ustun bo‘lsa-da, boshlang‘ich bosqichda murakkablik tug‘dirishi mumkin. COCA esa klassik lug‘at emas, balki korpus bazasi bo‘lib, kollokatsion va kontekstual tahlil uchun eng sama-rali vosita hisoblanadi, ammo undan foydalanish maxsus ko‘nikma talab qiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Mazkur maqolada web-lug‘atlar asosida ingliz tili leksikasini o‘qitishning interaktiv modeli nazariy va amaliy jihatdan asoslab berildi. Tadqiqot davomida leksikografiya fanining shakllanish bosqichlari, uning pedagogik yo‘nalishga integratsiyalashuvi hamda zamonaviy raqamli leksikografiyaning metodik imkoniyatlari tahlil qilindi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, bugungi kunda lug‘at oddiy ma’lumot manbai emas, balki talabaning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etuvchi interaktiv ta’lim vositasiga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Bergenholtz H, Tarp S. Manual of Specialised Lexicography: The Preparation of Specialised Dictionaries. Amsterdam, John Benjamins, 1995.

(2). Biber D., Conrad S., Reppen R. Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. Cambridge: Cambridge University Press, 1998.

(3). Cambridge University Press. Cambridge Dictionary Online [Internet]. Cambridge: Cambridge University Press, 2024 [cited 2026 Feb 20]. Available from: https://dictionary.cambridge.org

(4). Cowie A.P. editor. The Oxford History of English Lexicography. Oxford, Oxford University Press, 2009.

(5). Fuertes-Olivera PA, Tarp S. Theory and Practice of Specialised Online Dictionaries: Lexicography versus Terminography. Berlin, De Gruyter, 2014.

(6). G‘aniyeva M. Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar. Toshkent, “Tafakkur”, 2018.

(7). Jackson H. Lexicography: An Introduction. London, Routledge, 2002.

(8). Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2012.

(9). Oxford University Press. Oxford Learner's Dictionaries [Internet]. Oxford, Oxford University Press, 2024 [cited 2026 Feb 20]. Available from: https://www.oxfordlearnersdictionaries.com
(10). Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili (leksikologiya). Toshkent, "Universitet", 2006.
(11). Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, "Fan va texnologiya", 2010.
(12). Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. Oxford, Oxford University Press, 1991.
(13). To'xtasinov I. Chet tillarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent, TDPU, 2015.
(14). Xudoyberganova D. O'zbek tilida korpus lingvistikasi asoslari. Toshkent, "Akademnashr", 2020.

Ozodova Odina Qobil qizi (O'zbekiston milliy Pedagogika universiteti 2-kurs tayanch doktoranti, Toshkent, O'zbekiston; odinaarifjanova@gmail.com)

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA GEYMIFIKATSIYA ASOSIDAGI KONSEPTUAL YONDASHUV

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining metodik kompetensiyasini rivojlantirishda geymifikatsiya yondashuvining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida EFL o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida innovatsion metodlarning yetarli darajada integratsiya qilinmaganligi tadqiqot muammosining dolzarbligini belgilaydi. Tadqiqotning maqsadi geymifikatsiya asosida metodik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan konseptual modelni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy-pedagogik tahlil, ilmiy manbalarni kontent-tahlil qilish va modellashtirish metodlaridan foydalanildi.*

Kalit so'zlar: *geymifikatsiya, EFL ta'limi, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari, metodik kompetensiya, tea-cher education, konseptual model, oliy ta'lim, pedagogik innovatsiyalar, motivatsiya.*

Озодова Одина (докторант 2-го года обучения Национального педагогического университета Узбекистана, г.Ташкент, Узбекистан; odinaarifjanova@gmail.com)

КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ ГЕЙМИФИКАЦИИ

Аннотация. *В статье рассматриваются педагогические возможности геймификации в развитии методической компетентности будущих учителей английского языка. Актуальность исследования обусловлена необходимостью внедрения инновационных подходов в систему подготовки преподавателей иностранного языка в условиях цифровизации высшего образования. Целью работы является разработка концептуальной модели формирования методической компетентности будущих учителей английского языка на основе геймификации. В ходе исследования применялись методы системного и сравнительно-педагогического анализа, контент-анализа научной литературы и педагогического моделирования.*

Ключевые слова: *геймификация, обучение английскому языку (EFL), будущие учителя англий-ского языка, методическая компетентность, педагогическое образование, концептуальная модель, высшее образование, педагогические инновации, учебная мотивация.*

Ozodova Odina (2nd year PhD student of National pedagogical university of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan; odinaarifjanova@gmail.com)

A GAMIFICATION-BASED CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR DEVELOPING METHODOLOGICAL COMPETENCE IN PRE-SERVICE EFL TEACHERS

Annotation. *This article explores the pedagogical potential of gamification in developing the methodological competence of pre-service EFL teachers. The relevance of the study is determined by the need to integrate innovative instructional approaches into contemporary teacher education within higher education. The aim of the research is to design a gamification-based conceptual framework for enhancing methodological competence in pre-service EFL teachers. The study employs systematic and comparative analysis, content analysis of recent scholarly literature, and conceptual modeling as its main research methods.*

Keywords: *gamification, EFL education, pre-service EFL teachers, methodological competence, teacher education, conceptual framework, higher education, pedagogical innovation, learning motivation.*

Kirish. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini takomillashtirish, ularning metodik kompetensiyasini rivojlantirish hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarni amaliyotga joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Global ta'lim makonida raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar va o'quvchi markazli yondashuvlar keng qo'llanilayotgan bir paytda, an'anaviy o'qitish usullarining o'zi kelajak o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini to'liq ta'minlab bera olmayapti. Shu nuqtayi nazardan, ingliz tilini o'qitish metodikasiga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, xususan, geymifikatsiya yondashuvini integratsiya qilish zarurati ortib bormoqda.